

TALABALARNING KASBIY MALAKASINI SHAKLLANTIRISHDA REFLEKSIV VIDEOTRENINGLARNING AHAMIYATI

Qarayev A.F.¹, Kiyasova K.K.²

Annotatsiya:

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalar kasbiy malakasini rivojlantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, refleksiv videotreninglar talabalar bilimini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada refleksiv videotreninglar orqali talabalarining kasbiy o'sishini qanday optimallashtirish mumkinligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: innovative technologies, reflexive videotrining, technology, innovation, virtual reality (VR), simulation environment, gamification, interactive simulation.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilar va talabalar kasbiy malakasini shakllantirishning samarador usullaridan biri hisoblanadi. Refleksiv videotrening texnologiyalaridan foydalanib dars o'tish talabalarining amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi va kasbiy mas'uliyatni oshiradi.

Refleksiya (shuningdek, refleks lotincha reflexio „teskari“ dan) – bu ong, ruh, tafakkur yoxud insonning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan turli xil hodisalar va tushunchalarni qamrab oluvchi tushuncha [Refleksiya ili refleksiya – kak pravilno?, 2021].

Refleksiv videotrening — bu o'quv jarayonida talabalar yoki o'quvchilar o'z faoliyati haqida fikr yuritish, uni tahlil qilish va yaxshilash uchun video yozuvlardan foydalaniladigan metodik texnologiyadir. Ushbu usul refleksiya (o'z-o'zini tahlil qilish) va amaliy treningni birlashtiradi. Shuningdek, bu usul nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish va kasbiy mas'uliyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bu texnologiya orqali talabalar o'zlarining amaliy faoliyatini kuzatib, xatolarini tahlil qilish va kelajakda ularni takrorlamaslik uchun rejalar tuzish imkoniyatiga ega bo'ladi. Asosiy jarayonlarda talabaning faoliyati (masalan, dars o'tish, amaliy mashg'ulot yoki ishchi jarayon) videoga yozib olinadi. Bular o'qituvchi va talabalar tomonidan birgalikda tahlil qilinadi. Muhokama davomida talaba o'zining xatolari, kuchli tomonlari va takomillashtirilishi kerak bo'lgan jihatlarni aniqlaydi va fikr-mulohaza asosida takomillashtirish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Bu refleksiv videotrening metodik texnologiyaning afzalliklari haqida birma-bir qarab chiqamiz:

- Talabalar o'z xatolarini vizual ravishda ko'rib, tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- Refleksiv jarayon tufayli o'z-o'ziga tanqidiy yondashuv va tahlil ko'nikmalari rivojlanadi.
- Amaliy mashg'ulotlarda chuqur o'rganish va tajriba orttirishga yordam beradi.
- Kasbiy malakani yaxshilash uchun ijodiy va innovatsion yechimlar topishga undaydi.

Shunday qilib, refleksiv videotrening nafaqat talabaning o'z faoliyatiga chuqur yondashishini, balki uning kasbiy rivojlanishiga samarali yordam beruvchi vosita hisoblanadi.

Refleksiv videotreninglarning o'rganishdan asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- O'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish: Bunda talabalarni o'z faoliyatini kuzatishga, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga o'rgatadi. Bu ularning o'z ishiga tanqidiy yondashuvni shakllantiradi.
- Xatolardan o'rganish: Talabalar o'z faoliyatlarida sodir bo'lgan xatolarni aniqlab, ulardan saboq olish va kelajakda takrorlamaslik uchun zarur choralarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish: Videotrening jarayonida real sharoitlar aks ettirilganligi sababli, talabalar nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishni o'rganadilar.
- Ijodiy va innovatsion fikrlashni rivojlantirish: Talabalar o'z faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishni o'rganadilar.
- Kasbiy o'sishni tezlashtirish: Refleksiya va tahlil jarayonlari talabalarining kasbiy rivojlanish jarayonini tezlashtiradi va ularni professional muhitga tayyorlaydi.

Umuman olganda, refleksiv videotreninglarning asosiy maqsadi talabalarni o'z-o'zini anglash va rivojlantirishga yo'naltirgan holda, ularning kasbiy tayyorgarligini va malakasini oshirish hisoblanadi.

¹ Qarayev Abduvafo Fazliddinovich, Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi

² Kiyasova Kaliya Kuralbayevna, Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Refleksiv videotreninglarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Avvalombor, yaxsh rejalashtirilgan jarayon bo'lishi kerak. Buning uchun aniq maqsadlar qo'yish va qiziqarli mavzular tanlash lozim bo'ladi. Har bir videotrening mashg'uloti uchun aniq o'quv maqsadlari va natijalarini belgilash kerak. Bu talabalar uchun dolzarb va real hayotga yaqin vaziyatlarni tanlash motivatsiyasini oshiradi. Ba shundan keyin, sifatli texnik jihozlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Albatta buning uchun, yaxshi sifatli video yozish uchun zamonaviy kameralar, mikrofonlar va dasturlarni ishlatish talab etiladi. Tahrir qilish uchun maxsus dasturlar yordamida videolarni qisqartirish yoki muhim qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Har bir videotreningdan keyin talabalarning faoliyatini tahlil qilish uchun jamoaviy muhokama uyushtiriladi. Muhokama davomida konstruktiv fikr-mulohazalar beriladi va ularni yozib olish lozim bo'ladi.

Talabalarga ijobiy va tanqidiy fikr-mulohazalarni to'g'ri berishni o'rgatish kerak bo'ladi. Talabalarni ruhlantiradigan ijobiy fikrlarni berish bilan birga, ularning xatolarini bartaraf etish uchun amaliy tavsiyalar berish muhim. Murakkab izohlar o'rniga sodda, aniq, tushunarli maslahatlar berish kerak bo'ladi.

Refleksiv videotreninglarning samaradorligini oshirishda asosan talabalarni faollikka undash lozim. Buning uchun talabalarni faol ishtirok etishi uchun ularni rag'batlantirish, ular o'z videolarini kuzatib, xulosa chiqarishi va o'z fikrlarini bildirishlari zarur.

Har bir talabaning individual rivojlanishiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Talabalar bilan individual ishlash orqali ularning o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash mumkin. Individual va guruhviy ishlash usullarini muvozanatlash orqali talabalar qiziqtiriladi. Guruhviy muhokamalar orqali esa umumiy xatolar va yechimlarni muhokama qilish mumkin. Qo'shimcha qo'llab-quvvatlash uchun refleksiv savollar tayyorlash lozim bo'ladi.

Doimiy ravishda talabalar o'z rivojlanishini kuzatishi uchun maxsus baholash tizimi joriy qilish, har bir mashg'ulotning natijasini qayd etib borish hamda ularni navbatdagi mashg'ulotlarga asos qilib olishlari lozim.

Refleksiv videotreninglarning samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar ishtirokini jonlantirish uchun o'yinlashtirish (gamification) elementlarini qo'llash yaxshi natijalarni beradi. O'qitishning kompyuter texnologiyasi, kompyuterning inson individual qobiliyatlariga mosligiga tayanadi. O'qitish jarayonini maqbul darajada tezkor boshqarish imkoniyati mavjudligi, bu o'qitish turining universal muloqoti ko'rinishida ekanligi, psixologik qulayliklari, axborot xajmida o'zlashtirilishi cheklanmaganligi bilan ajralib turadi [Avliyakov N.H., Axmetjanov M.M., Tojiyev M., Musayeva N.N., 2018].

Virtual haqiqat (VR) va interaktiv simulyatsiyalarni refleksiv videotreninglarga qo'llash ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va ta'sirchan qilish imkonini beradi. Virtual haqiqat - bu haqiqiy yoki xayoliy dunyoni taqlid qiluvchi butunlay immersiv va interaktiv muhitni yaratadigan texnologiya. VR simulyatorlari haqiqiy dunyoni blokirovka qilish va foydalanuvchini virtual muhitga o'tkazish uchun eshitish vositasi yoki boshqa qurilmadan foydalanadi. VR simulyatorlari turli dasturlarda, jumladan, o'yin, ta'lim va sog'liqni saqlashda qo'llanilishi mumkin. VR simulyatorlarining asosiy afzalliklaridan biri bu ularning to'liq immersiv va qiziqarli tajriba yaratish qobiliyatidir. Ushbu texnologiyalarni refleksiv videotreningda qo'llash quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin:

1. VR yordamida kasbiy vaziyatlarni modelashtirish. Bunda real hayotga yaqin sharoitlar yaratishda VR texnologiyalari talabalarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Misol qilib, tibbiyot sohasida bemor bilan ishlash jarayonini simulyatsiya qilish, pedagogikada dars o'tish yoki ota-onalar bilan muloqotni o'rgatish va muhandislikda murakkab loyihalarni amalga oshirish kabilarni aytishimiz mumkin. Bu erda talabalar VR tajribasidan so'ng o'z harakatlarini yozib olib, keyinchalik ushbu faoliyatni tahlil qilishlari mumkin.

2. Simulyatsion muhit orqali refleksiv o'rganish. Bunda esa simulyatsiyalar orqali talabalar murakkab va xavfli vaziyatlarni xavfsiz muhitda sinab ko'rishi mumkin. Bundan tashqari talabalar bir xil vaziyatni qayta-qayta mashq qilish va har safar o'z harakatlarini yaxshilash imkoniga ega bo'lishadi.

3. O'yinlashtirilgan (gamifikatsiya) vaziyatlar yaratish. VR yoki simulyatsiyalarda talabalar muammolarni hal qilish bo'yicha qadam-baqadam vazifalarni bajarib boradilar hamda har bir interaktiv topshiriq yakunida tizim talabaning harakatlarini baholaydi va tahliliy hisobot taqdim etadi.

4. Talabalarning individual rivojlanishini kuzatish. VR yoki simulyatsiyalarda har bir mashg'ulot natijalari tizimda saqlanib boradi. Bu talabalar rivojlanishini monitoring qilishga yordam beradi. Har bir talabaga ularning kamchiliklariga mos maxsus mashg'ulotlarni VR orqali taklif qilinadi.

5. Interaktiv qayta aloqa tizimini joriy etish. Simulyatsiya jarayonida VR yordamida o'qituvchi talabaga bevosita maslahat yoki yo'riq berishi mumkin. Ba'zi VR platformalari talabalar harakatlarini avtomatik ravishda tahlil qiladi va ularga xatolar haqida ma'lumot beradi.

6. VR va simulyatsiyalarning foydasini ko'paytirish uchun qo'shimcha vositalar. Kasbiy vaziyatlar bilan bog'liq interaktiv boshqotirmalar orqali talabalar o'z mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini

rivojlantirishi mumkin. O'qituvchilar uchun VR auditoriyalari yaratilib, dars o'tish tajribasi simulyatsiya qilinadi va ularning nutq, pedagogik usullarini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Virtual haqiqat va interaktiv simulyatsiyalar refleksiv videotreninglar samaradorligini oshiradi, chunki ular talabalarni real sharoitlarga tayyorlaydi va ularning tahliliy hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu texnologiyalarni to'g'ri rejalashtirish va moslashuvchan qo'llash orqali ta'lim jarayonini yanada sifatli va interaktiv qilish mumkin.

Refleksiv videotreninglarning samaradorligi asosan puxta rejalashtirilgan jarayon, sifatli texnik jihozlar, talabalarning faol ishtiroki va konstruktiv fikr-mulohazalar asosida oshadi. Ushbu usullar yordamida talabalar nafaqat o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki o'zlarining kasbiy rivojlanish jarayonini ham boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Refleksiv videotreninglar talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu usul orqali talabalar o'zlarining kasbiy o'sishini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, refleksiv videotreninglar qo'llangan guruhlarda talabalar samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Refleksiv videotreninglar yordamida talabalar real vaziyatlarga yaqin sharoitlarda tajriba orttiradi, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashishni o'rganadi va kasbiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, bu texnologiya ularning ijodiy fikrlashi, o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etishi va professional muhitga moslashishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, talabalarning kasbiy malakasini shakllantirishda refleksiv videotreninglarni qo'llash bugungi kunda nafaqat zarur, balki zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib shini aytish mumkinki, kelgusida refleksiv videotreninglar metodikasining yanada takomillashtirilishi va boshqa o'quv jarayonlarida qo'llanilishi bo'yicha izlanishlar olib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. *Refleksiya ili refleksiya – kak pravilno? Data obrasheniya: 18 iyunya 2021. Arxivirovano 24 iyunya 2021 goda.*
- [2]. Avliyakov N.H., Axmetjanov M.M., Tojiyev M., Musayeva N.N. *Ta'lim texnologiyalari. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2018. - 341 bet.*
- [3]. Yuldasheva G. G. (2019). "Elektron ta'lim platformalarini ishlab chiqishda pedagogik dizayning ahamiyati". *Ta'lim texnologiyalari va innovatsiyalar*, 2(8), 45-52.
- [4]. Tursunov K. K. (2021). "Masofaviy ta'limda interaktiv platformalardan foydalanish tajribalari." *O'zbekiston ta'lim tizimi jurnali*, 5(20), 30-37.
- [5]. Saidova L. L. (2020). "Onlayn ta'lim platformalarini joriy etishda texnologik yondashuvlar." *Axborot texnologiyalari va ta'lim*, 4(12), 15-21.
- [6]. Qorayev A. F. *Refleksiv videotrening asosida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarning kasbiy o'sish samaradorligini oshirish. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, №10, 202-b.*
- [7]. Malikov, R., Abdirashidova, G., & Abdirashidov, A. (2020). Approximate solution some delay differential equations using combination of the Laplace transform and the variational iteration method. *Int. Sci. J. Theor. Appl. Sci*, 85(5), 406-411.
- [8]. Raufovich, Malikov Ruslan. "GOOGLE DOCS VA SUN'IY INTELEKTNING HAMKORLIKNI YARATISHDAGI O'RNI." *Science and innovation 3.Special Issue 19 (2024): 373-375.*
- [9]. Qorayev, Abduvafo. "Oliy ta'limda "Matematika o'qitish metodikasi" Fanidan refleksiv videotrening yaratish metodikasi." *International conference on modern development of pedagogy and linguistics. Vol. 1. No. 8. 2024.*
- [10]. Kiyasova, K. (2025). Philosophical And Ethical Views In The Scientific Heritage Of The Thinker Ishaqhon Ibrat. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 214-216.
- [11]. Nizomiddinovich, E. M., & Azamatovich, M. U. (2024). Chet tillarini rivojlantirish. *Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences*, 3(30), 226-229.
- [12]. Turniyozov, N., Turniyozova, K., & Xayrullayev, X. (2009). *Struktur sintaksis asoslari. Samarqand: SamDCHTI.*
- [13]. Xayrullayev, X. Z. (2001). *So'z, so'z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati. Nomzodlik dis. avtoreferati.-Toshkent.*
- [14]. Khayrullaev, K. Z. (2001). *The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness. Abstract of candidate dissertation.-Tashkent.*
- [15]. Хайруллаев, Х. (2002). *Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари.*

[16]. Хайруллаев, Х. (2009). О лингвистической природе уровней языка и речи. Вопросы филологических наук, (2), 78-79.

[17]. Nizomiddinovich, E. M., qizi Ravshanova, M. J., & Azamatovich, M. U. (2024). Farzand muvaffaqiyati yo'lida ota-onaning roli. In international conference on advance science and technology (Vol. 1, No. 11, pp. 20-22).